

**Xalqaro Nordik universitetida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar
profilaktikasi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilish
BAYONI**

2024-yil 2-oktyabr

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

Sh.Adilxodjayev

–

Rektorning talabalar orasida
ijtimoiy-ma'naviy muhit bar-
qarorligini ta'minlashga mas'ul
bo'lgan maslahatchisi

Kotib:

N.Qodirov

–

Yoshlar ishlari va talabalarga
xizmat ko'rsatish departamenti
boshlig'i

Qatnashchilar:

–

yoshlar yetakchisi, dekan
o'rinbosarlari, tyutorlar, faol
talabalar

**Yig'ilishda talabalarning huquqiy savodxonligini oshirish, korrupsiya va
boshqa illatlar ta'siridan asrash masalalari muhokama etildi**

(Rektorning talabalar orasida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga
mas'ul bo'lgan maslahatchisi Sh.Adilxodjayev, Yoshlar ishlari va talabalarga
xizmat ko'rsatish departamenti boshlig'i N.Qodirov)

2024-yilning 2-oktyabr kuni XNUda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 31-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 26-iyuldagi 15-son bayonnomasi va ilovalarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi" ijrosini ta'minlash yuzasidan yig'ilish o'tkazildi.

Rektor maslahatchisi Sh.Adilxodjayev mazkur chora-tadbirlar rejasining 19-bandida: "#Stop_korrupsiya heshtegi ostida chellenj o'tkazish, universitet ijtimoiy tarmoqlarida "Korrupsiyaga qarshi kurash" rubrikasini (sarlavhasi)ni yuritib borish vazifalari belgilanganini ma'lum qildi.

Yig'ilishda talaba-yoshlarni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, ya'ni korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan qilmishlar va sodir etilganligi uchun qonunchilikda belgilangan javobgarlik bo'yicha huquqiy savodxonligini oshirish xususida so'z bordi.

Yig'ilish davomida barcha yo'nalishlar guruhlarida talabalarni keng jalb etgan holda taqdimot-ma'ruzalarni amalga oshirish, turli tanlovlar tashkillash kerakligi ta'kidlandi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari haqida talabalarga keng ma'lumotlar berish, qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, shuningdek javobgarlikning muqarrarligi borasida ularning dunyoqarash va huquqiy bilimlarini boyitish chora-tadbirlari belgilab berildi.

Rais

Sh.Adilxodjayev